

# INSON va qonun

2023-YIL  
1-AVGUST  
SESHANBA

№ 30 (1390)

www.hudud24.uz

@adolat\_nashrlari



"ADOLAT" milliy  
huquqiy axborot  
markazi nashrlariga  
obuna bo'ling!



"Adolat  
nashrlari"  
telegram  
kanalida  
kuzating!

[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz) [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) [facebook.com/hudud24official/](https://facebook.com/hudud24official/)

XABAR



Shunga ko'ra, Adliya vaziri, viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i va boshqa mas'ullar bilan birgalikda viloyatdagi jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan Marg'ilon shahridagi "Uzun hovuz" MFY,

O'tgan haftada Adliya vaziri Akbar Toshqulov Farg'onada xizmat safarida bo'lib, "qizil hudud" tarkibidagi mahallalar hamda adliya bo'limlari, davlat xizmatlari markazlari bilan birgalikda ishlab chiqarish korxonalari va tadbirkorlik subyektlarida bo'ldi.

Qo'shtepa tumanidagi "Qumtepa" MFYlarga borildi, ushbu mahallalardagi "beshlik" (mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori) bilan suhbatlar o'tkazildi hamda muammo va takliflar, jinoyatlar sonining oshishi sabablari va omillari o'rganildi.

Suhbat davomida jinoyatchilikning oldini olishda jamoatchilik nazoratining o'рни va huquqiy targ'ibot tadbirlariga alohida urg'u berildi.

Kelajakda ushbu hududlarda jinoyatlarni kamaytirish yuzasidan fikr-mulohazalar va takliflar bildirildi.

Shuningdek, Adliya vaziri yuridik texnikumda bo'lib, o'quv muassasasida o'qish jarayonlari, o'qituvchi va o'quvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, moddiy-texnik bazasining ta'minlanganlik darajasi bilan ham yaqindan tanishdi.

Texnikum binosi 720 o'ringa mo'ljallangan, 75 o'rinli o'quvchilar turar joyi, sport zali, shuningdek, sport o'yinlari uchun maydonlardan iborat.

Vazir texnikumdagi mavjud muammolar yuzasidan o'z tavsiyalarini berdi. Shuningdek, o'quvchilarni kelgusida kasbga yo'naltirishga doir qilinishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha aniq topshiriqlar berildi.

O'z muxbirimiz

## HAYAJONLI DAMLAR



Iroda  
MAHMUDOVA:

– Orzular insonning qanoti. Yuksak marralarni zabt etishga orzu-maqсад yordam beradi. Bu yil Toshkent shahridagi 195-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabini oltin medal bilan bitirdim. Abituriyentman. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining ingliz tili filologiyasi yo'nalishiga hujjat topshirganman. Garchi imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko'rgan bo'lsam ham, bugun juda hayajondaman. Yaqinlarim, ustozlarim ishonchini oqlashga harakat qilaman. Barcha tengdoshlarimga omad yor bo'lsin!

2023-2024-o'quv yili uchun OTMlarning bakalavriatiga o'qishga kirish uchun onlayn ro'yxatdan o'tgan va test sinovlarida ishtirok etishi belgilangan abituriyentlar soni 948 ming 486 nafarni tashkil etdi.

Abituriyentlarning ta'lim shakllari bo'yicha taqsimoti (birinchi ta'lim yo'nalishiga nisbatan):

Kunduzgi ta'lim shakli – 545 ming 616 nafar;

Kechki ta'lim shakli – 22 ming 867 nafar;

Sirtqi ta'lim shakli – 373 ming 169 nafar;

Masofaviy ta'lim shakli – 6 ming 834 nafar.

Eng ko'p abituriyent ro'yxatdan o'tgan OTMlar (birinchi ta'lim yo'nalishiga nisbatan):

O'zbekiston milliy universiteti – 33 ming 721 nafar.

Toshkent davlat transport universiteti – 28 ming 474 nafar.

Farg'ona davlat universiteti – 28 ming 188 nafar.

Toshkent davlat pedagogika universiteti – 26 ming 827 nafar.

Qarshi davlat universiteti – 26 ming 640 nafar.

## Adliya vaziri tadbirkorlar bilan uchrashdi

Farg'ona shahrida faoliyat olib borayotgan gilam ishlab chiqarish korxonasi, oynaga qayta ishlov berish zavodi, trikotaj mahsulotlari tayyorlovchi eksportyor bilan uchrashib, ularning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yuzasidan qonunchilikka takliflari bilan qiziqdi. Qonunchilik nuqtayi nazaridan faoliyat uchun to'siq bo'layotgan ayrim omillar, huquqiy jihatlar ham o'rganildi.

Hozirgi kunda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish davlat organlari va tashkilotlarining asosiy ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

## 2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

SO'RAGAN EDINGIZ

## 1-AVGUSTDAN NIMALAR O'ZGARADI?

## YANGI LAVOZIMLAR JORIY ETILADI

Ayrim tibbiyot muassasalarida 2023-yil 1-avgustdan boshlab quyidagi lavozimlar joriy etiladi:

- tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida – tibbiy psixolog;
- stasionar o'ringa ega bo'lgan ruhiy-asab kasalliklari dispanserlari va tarkibida dispanser mavjud bo'lgan ruhiy kasalliklar shifoxonalarida – suitsidolog;
- stasionar o'ringa ega bo'lgan ruhiy-asab kasalliklari dispanserlari va ruhiy kasalliklar shifoxonalarida – qabul bo'limi shifokori, navbatchi psixiatr, tibbiy psixolog yoki psixoterapevt shtatlari joriy etiladi.

suv omborlarida ishlovchi mas'ul xodimlarning seysmologik va seysmometrik kuzatuvlarni amalga oshirish va birlamchi tahlil qilish bo'yicha har 2 yilda malakasini oshirish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.



## KOMPYUTER XARIDLARI UCHUN AJRATILADIGAN MABLAG' BANK KARTASIGA O'TKAZILADI

Qonunchilikka ko'ra, yoshlarga kompyuter xaridlari uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan mikroqarz shaklida;

"Yoshlar daftari" va Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi jamg'armalari hisobidan beriladigan subsidiya mablag'larini ijtimoiy kontrakt asosida yoshlar xohishiga ko'ra alohida ochilgan bank kartasiga (naqdlashtirish imkoniyatisiz) o'tkazishga ruxsat beriladi.

## MAS'UL XODIMLARGA 20 FOIZ USTAMA TO'LANADI

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan davlat organlari va boshqa budjet tashkilotlarining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan xodimlariga o'rnatilgan ustamalarga qo'shimcha ravishda lavozim maoshiga nisbatan 20 foiz miqdorda ustama to'lanadi.

Bunda, xalqaro sertifikat ro'yxati Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan shakllantiriladi va uning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Raqamli texnologiyalar vazirligining axborot texnologiyalari hamda raqamli xizmatlar joriy etilishi holatini baholash reytingi bilan qamrab olinmagan davlat organlari rahbarlarining raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosarlariga har oyda mehnatga haq to'lash jamg'armasining 30 foiz miqdorida ustama haq to'lanadi.

**Ma'rufjon LUKCHAYEV,**  
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi



– Men ikki hafta oldin "prava"ni yo'qotib qo'ydim. Uning o'rniga yangisini olishim uchun qayerga murojaat qilishim kerak?

**S. YO'LDOSHEV,**  
Payariq tumani

## "PRAVA" NI TIKlash UCHUN QAYERGA MUROJAAT QILSAM BO'LADI?



– Qonunchilikka ko'ra, fuqaroning ismi, familiyasi va otasining ismi o'zgartirish, shuningdek, milliy haydovchilik guvohnomasini almashtirish hamda yo'qolgani o'rniga yangisini olish uchun DYHXX organi yoki Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat qiladi yoki mustaqil tarzda YalDXPd onlayn ariza beradi.

Bunda quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak:

**a) eski namunadagi haydovchilik guvohnomasini almashtirish uchun**

eski namunadagi haydovchilik guvohnomasining rasmi (orqa hamda old tomoni);

eski namunadagi haydovchilik guvohnomasini talonining rasmi (orqa hamda old tomoni);

**b) yo'qolgan haydovchilik guvohnomasini o'rniga yangisini olish uchun**

eski namunadagi haydovchilik guvohnomasini va/yoki talonining rasmi (orqa hamda old tomoni, mavjud bo'lsa).

**Yangi namunadagi milliy haydovchilik guvohnomasini almashtirish uchun faqat so'rovnoma to'ldiriladi.**

Shuningdek, milliy haydovchilik guvohnomasini berish va uni yangisiga almashtirish uchun BHMning 70 foizi (231 ming so'm) miqdorida yig'im undiriladi. Yo'qotilgan haydovchilik guvohnomasini o'rniga yangi namunadagi milliy haydovchilik guvohnomasini berish uchun esa BHMning 1 baravari (330 ming so'm) miqdorida to'lov undiriladi.

Fuqaro xohishiga ko'ra, milliy haydovchilik guvohnomasini pochta aloqasi orqali olishi mumkin. Bunda, pochta xarajatlari uning hisobidan qoplanadi. Pochta aloqasi tomonidan ko'rsatilgan xizmat uchun to'lov miqdori pochta xizmati tomonidan belgilanadi. Pochta xizmati xodimi guvohnomani Toshkent shahri va viloyatlar markazida bir ish kuni, qolgan hududlarda 2 ish kuni ichida fuqaroga yetkazib berishi shart.

Milliy haydovchilik guvohnomasini haqidagi ma'lumotlar tizimda tasdiqlanmagani yoki ariza beruvchi transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilgani (yo'qolgan haydovchilik guvohnomasini o'rniga yangisini berish bo'yicha), so'rovnomada noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgani, davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun yig'imni to'lamaslik, ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlarning so'rovnomaga ilova qilinmagani (eski namunadagi haydovchilik guvohnomasini almashtirish bo'yicha) milliy haydovchilik guvohnomasini almashtirish, yo'qolgani o'rniga yangisini berishni rad etish uchun asos bo'ladi.

"Prava"ni almashtirish, yo'qolgani o'rniga yangisini berishni berishni boshqa asoslarga ko'ra rad etish taqiqlanadi.

Eng muhimi, ariza beruvchi milliy haydovchilik guvohnomasini almashtirish, yo'qolgani o'rniga yangisini berish rad etilgan kundan boshlab 30 ish kuni mobaynida davlat xizmati ko'rsatish uchun yig'im to'lamasdan ko'rsatilgan kamchilikni bartaraf etgan holda takroran murojaat qilish huquqiga ega.

**Bobur ABDUXAMIDOV,**  
Samarqand shahar adliya bo'limi DXM xodimi

## DAROMAD SOLIG'IDAN OZOD QILINADI

Qonunchilikka ko'ra, soliq to'lovchilar tomonidan yoshidan qat'iy nazar farzandlarining O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishlari uchun yo'naltiriladigan to'lovlar soliq solinmaydigan daromadlar toifasiga kiritiladi.

Ushbu tartib ta'limning barcha bosqichlari – maktabgacha, maktab va oliy ta'lim tizimiga joriy etiladi.



## ELEKTRON PLATFORMA ISHGA TUSHIRILADI

Qonunchilikka ko'ra:

"Suv omborlarida seysmologik kuzatuvlarni amalga oshirish elektron platformasi" ishga tushiriladi;

**Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasiga "Mega leader" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbaridan kelgan murojaatda ma'lum qilinishicha, 2019-yil 30-yanvarda MChJ bilan Sirdaryo viloyat hokimligining qurilish bo'yicha yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi o'rtasida pudrat shartnomasi tuzilgan. Shartnoma shartlariga asosan MChJ loyihada ko'zda tutilgan obyekt – Yangiyer shahar Tohir Malik mahallasidagi suv inshootini rekonstruksiya qilishi, injiniring kompaniyasi esa pudratchiga ta'mirlash ishlarini bajarishi uchun zarur sharoit yaratib berish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini olishi nazarda tutilgan.**

## TADBIRKOR TANG QOLDI



Pudratchi tomonidan ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazilib, 2019-yil 14-fevralda suv inshooti foydalanishga topshirilgan. Biroq, yagona injiniring kompaniyasi tomonidan shartnomada belgilangan kafolat muddati o'tgandan keyin ham uzoq vaqt bajarilgan ishlar qiymatining 5 foizlik kafolat summasi, ya'ni 94 million 450 ming so'm to'lab berilmagan.

Murojaatni o'rganish jarayonida tadbirkorning e'tirozi asosli bo'lib chiqdi. Ushbu qarzdorlik 2019-yil 14-fevralda suv tarmog'i qurilish ishlarini bajarish ishlari tugallangan obyektini foydalanishga qabul qilish to'g'risi-

da davlat ishchi va hay'at komissiyasining tegishli dalolatnomasi va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan hisob-kitob ma'lumotnomasida ham o'z tasdig'ini topdi.

Fuqarolik kodeksining 638-moddasiga ko'ra, agar pudrat shartnomasida bajarilgan ishga yoki uning ayrim bosqichlariga oldindan haq to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, buyurtmachi pudratchiga shartlashilgan haqni ishga tegishli tarzda va kelishilgan muddatda yoxud buyurtmachining roziligi bilan muddatidan oldin bajarilib, uning natijalari uzil-kesil topshirilganidan keyin to'lashi shart.

Ushbu kodeksning 236-moddasiga muvofiq, majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonunchilik talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak.

Mazkur kodeksning 242-moddasiga ko'ra, agar majburiyatni bajarish muddati ko'rsatil-magan yoki talab qilib olish payti bilan belgilab qo'yilgan bo'lsa, kreditor har qachon ijroni talab qilishga, qarzdor esa – ijroni amalga oshirishga haqli bo'ladi. Majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun, shartnoma yoki majburiyatning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab yetti kunlik muddat ichida bajarishi shart.

Shuningdek, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunning 32-moddasiga asosan yetkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

Yuqoridagi normalarga asosan viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tadbirkor manfaatida Guliston tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qarori bilan yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi hisobidan "Mega leader" MChJ foydasiga 94 million 450 ming so'm miqdorida asosiy qarz, 6 million 700 ming so'm miqdorida penya undirilishi belgilandi.

**Javohir KOMILOV,**  
Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

**"Samarqand O'zbekgazsuv qurilish" MChJ va Toyloq tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi o'rtasida bir nechta shartnoma tuzilgan. Tuzilgan shartnomalarga asosan, tadbirkor buyurtmachi korxonaga kelishilgan xizmatlarni ko'rsatgan. Ko'rsatilgan xizmatlarning jami qiymati 11 milliard 299 million 784 ming 247,7 so'mni tashkil etgan. Ammo shartnoma shartlari bajarilgan bo'lsa-da, korxonaga xizmat haqini 7 milliard 346 million 747 ming 32,8 so'm qismini to'lab, qolganini to'lashni paysalga solib kelgan.**

## "ISHIM BITDI, ESHAGIM SUVDAN O'TDI(MI)?"



Shartnoma shartlariga ko'ra, to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlar bajarilmagan qismining 0,5 foizi, biroq 30 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'lash nazarda tutilgan.

Shunga ko'ra, MChJ tomonidan Toyloq tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi-ga joriy yilning 17-fevral kuni korxonaning jamiyat oldidagi qarzdorligini to'lab berish, aks holda asosiy qarz bilan birga penya undirish masalasida sudga murojaat qilinishi haqida talabnoma, keyinchalik bir necha bor ogohlantirish xatlari yuborilgan. Biroq korxonaga mas'ullari shunda ham "ishim bitdi, eshagim suvdan o'tdi" qabiida ish tutib, to'lovni to'lamagan.

MChJ rahbariyati buzilgan huquqlarini tiklash, ko'rsatgan xizmatlari uchun unitar korxonadan ish haqini undirishda amaliy yordam so'rab Toyloq tuman adliya bo'limiga murojaat qildi. O'rganish davomida unitar korxonaga shartnoma shartlarini to'liq bajarmagani tasdiqlandi. Adliya bo'limi tomonidan tadbirkor manfaatida Toyloq tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sud ishni xolisona ko'rib chiqdi, iqtisodiy protsessual kodeksning 118, 176-179, 180, 186-moddalarini qo'llab, unitar korxonaga hisobidan tadbirkor foydasiga 3 milliard 693 million 37 ming 214,92 so'm asosiy qarz va 105 million 29 ming 250 so'm penya undirish majburiyatini yukladi.

**Sanjar CHO'LIEV,**  
Toyloq tuman adliya bo'limi boshlig'i

## VASIYATNOMANI BEKOR QILISH MUMKINMI?



**– Vasiyatnoma nima va uni qanday hollar-da o'zgartirish yoki bekor qilish mumkin?**

**T. SHOKIROVA,**  
Davlatobod tumani

– Fuqarolik kodeksining 1120-moddasiga ko'ra, fuqaroning o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkini yoki bu mol-mulka nisbatan huquqini tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi vasiyat deb e'tirof etiladi. Vasiyatnoma shaxsan tuzilishi shart va vakil orqali tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fuqaro barcha mol-mulkini merosxo'rlarga, bir yoki bir nechta shaxsga, shu bilan birga yuridik shaxslarga, davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga vasiyat qilib qoldirishi mumkin.

Vasiyatnomani yozib qoldirishda notarial idoralarga shaxsan murojaat qilish, fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjat talab qilinadi.

Vasiyat qiluvchi shaxs istalgan vaqtda o'z

vasiyatnomasini to'laligicha bekor qilishga yoki unda mavjud bo'lgan ayrim vasiyat farmoyishlarini ayni vasiyatnoma tuzish orqali bekor qilishga, o'zgartirishga yoki to'ldirishga haqli.

Vasiyatnoma vasiyat qiluvchi tomonidan uning yozma farmoyishiga binoan notarius yoki boshqa mansabdor shaxslar tomonidan uning barcha nusxalarini yo'q qilib tashlash yo'li bilan bekor qilinishi mumkin. Ayni vasiyatnoma tuzish orqali oldin tuzilgan vasiyatnoma to'laligicha yoki uning keyingi vasiyatnomaga zid bo'lgan qismi bekor qilinadi.

**Savolga Davlatobod tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Ma'murjon BARATOV javob berdi**

## 4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

**SIRDARYO**

Sayxunobod tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi jismoniy tarbiya fani metodisti sifatida faoliyat yuritib kelgan A. Mirzayevga tegishli buyruq bilan unga "sport targ'ibotchisi" qo'shimcha vazifasi yuklatildi va lavozim maoshiga 20 foiz miqdorida ustama haq to'lanishi belgilandi. Biroq, unga vazifa yuklandi-yu, ustama puli to'lab berilmadi.

**QARORDA BOR,  
AMALDA YO'Q**

Ushbu qonunbuzilish holati Sayxunobod tuman adliya bo'limi tomonidan Prezidentimizning 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining ijrosi yuzasidan o'tkazilgan monitoring ja-

rayonida aniqlandi.

Vaholanki, Prezident qarorining 13-bandida sog'lom turmush tarzi va ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida mehnat jamoalarida faoliyat yuritayotgan xodimga "sport targ'ibotchisi" qo'shimcha vazifasini yuklash va uning bazaviy lavozim maoshiga 20 foiz miqdorida ustama to'lanishi qayd etilgan.

Mehnat kodeksining 244-moddasi birinchi qismi beshinchi xatboshisida mehnat to'g'risidagi qonunchilikda xodimlarning mehnatiga haq to'lash sohasidagi asosiy kafolatlardan biri - ish beruvchining o'z moliyaviy ahvolidan qat'iy nazar, qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda, mehnat shartnomasida belgilangan mehnatga haq to'lash shartlariga muvofiq xodimlar tomonidan bajarilgan ish uchun haq to'lashni amalga oshirish majburiyatini mustahkamlab qo'yish belgilangan.

Yuqoridagilarga asosan adliya bo'limi tomonidan fuqaro A. Mirzayev manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Sirdaryo tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.


Sudning hal qiluv qarori bilan tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi orqali budjetdan tashqari maxsus jamg'arma hisobidan A. Mirzayev foydasiga 8 million 861 ming 17 so'm undirilishi belgilandi.

**Baxtiyor NAZAROV,**

Sayxunobod tuman adliya bo'limi boshlig'i

**TOSHKENT**

Yangiyo'l tuman veteranariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markaziga yuborgan murojaatida bo'lim xodimi S.A. malaka oshirish kurslarini o'tab, unga Atestatsiya komissiyasining 2022-yil 8-oktabrdagi sertifikatiga asosan "oliy" malaka toifasi berilgani, lekin shu kunga qadar qonunda belgilangan tegishli ustama to'lab berilmagani yuzasidan amaliy yordam berishni so'ragan.

**MALAKA  
TOIFASI OLIY,  
USTAMA ESA NOL**

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Veteranariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Veteranariya xizmati mutaxassislarining malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash va ularga malaka toifalari berish tartibi to'g'risida"gi nizomning 31-ban-

diga asosan "Tegishli malaka toifalariga ega bo'lgan veteranariya xizmati, shu jumladan boshqaruv xodimlarining oylik ish haqiga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan budget mablag'i hisobidan "oliy" toifa uchun 21,1 foiz belgilangani va ushbu ustama har oyda oylik ish haqi bilan birga to'lab berilishi ko'rsatib o'tilgan.

Shunga asosan, yuridik xizmat ko'rsatish markazi xodimlari tomonidan tuman veteranariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limining mas'ul xodimlariga yuqoridagi qaror talablari tushuntirilishi natijasida bo'lim xodimi S.A.ga 2022-yilning oktabr oyidan joriy yilning iyun oyiga qadar to'lanmagan 4 million 566 ming 548 so'm bo'lgan ustama puli to'lab berildi.

**Saidislom JAMOLOV,**

Yangiyo'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

**QORAQALPOG'ISTON****ISH HAQI  
BERILMAGAN**

Joriy yilning iyun oyida tashkil etilgan "Inson huquqlari - oliy qadriyat" huquqiy aksiyasi davomida Taxi-tosh tuman adliya bo'limi tomonidan tumandagi davlat organlari va tashkilotlarida sayyor qabul hamda monitoring o'tkazildi.

O'tkazilgan sayyor qabul va monitoringlar davomida tumandagi "Ko'priqurilish" tresti unitar korxo-

nasi "14-son ko'priq qurilish otryadi"da ishlovchi fuqarolar A.A. va boshqalarning ish-haqini undirib berishda amaliy yordam berishni so'rab qilgan murojaati ish yurituvga qabul qilindi.

Murojaatlarni o'rganish davomida 818 nafar ishlovchi xodimga jami 3 milliard 668 million so'm ish haqi to'lab berilmagani aniqlandi.

Adliya bo'limi tomonidan ishchi

xodimlarga ish haqini to'lab berish bo'yicha korxonada ma'muriyatiga kiritilgan taqdimnomaga asosan "Ko'priqurilish" tresti unitar korxonasi "14-son ko'priq qurilish otryadi"da ishlovchi xodimlarga ish haqi to'liq undirib berildi.

**Atabek GULIMBETOV,**

Taxiatosh tuman adliya bo'limi boshlig'i v.v.b.

**TOSHKENT****HOKIMLIK DAN  
KOMPENSATSIYA  
UNDIRILDI**

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi, huquqni qo'llash amaliyotining holati, fuqarolarning huquq hamda erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish, notariat va advokatura yo'nalishlarida fuqarolarning murojaatlari adliya idoralari e'tiborida.

Toshkent viloyat adliya boshqarmasiga joriy yilning o'tgan olti oyida jami 4 ming 565 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning 4 ming 317 tasi (94 foizi) hal etilgan bo'lib, shu jumladan 2 ming 866 tasi (62 foizi) to'liq qanoatlantirildi, 1 ming 451 ta murojaat bo'yicha huquqiy tushuntirish berildi.

Xususan, "Obod Ta'mir" MChJning Toshkent viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK tomonidan qurilish pudrat shartnomasiga asosan bajarilgan ishlar uchun 562,7 million so'm miqdoridagi pul mablag'i to'lab berilmayotgani yuzasidan qilgan murojaati adliya boshqarmasi to-

monidan o'rganib chiqildi.

O'rganish davomida "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK tomonidan bajarilgan ishlar uchun "Obod Ta'mir" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga shartnomadagi pullar to'lab berilmagani aniqlandi.

Adliya boshqarmasi tomonidan ushbu holat yuzasidan O'rta Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sud tomonidan ariza to'liq qanoatlantirilib, hal qiluv qaroriga asosan "Obod Ta'mir" MChJga 562,7 million so'm miqdorida pul mablag'i to'lab berilishi ta'minlandi.

Shuningdek, fuqaro I. Raziqovning o'z turar joyi Nurafshon shahar hokimligi tomonidan dav-

lat va jamoat ehtiyojlari uchun olingani, kompensatsiya pulini esa to'lamay kelayotganidan norozi bo'lib qilgan murojaati ham o'rganildi.

O'rganish jarayonida haqiqatan ham 334 million so'mlik kompensatsiya to'lovi to'lab berilmagani aniqlandi. Shundan so'ng I. Raziqovning manfaatini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha O'rta Chirchiq tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritilib, fuqaro foydasiga 334 million so'm miqdoridagi kompensatsiya puli undirilishi belgilandi.

**Qahramon HAFIZOV,**

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

Muyulishdan chiqib kelgan oppoq "Lasetti" qassobxonana biqinida jonsarak turgan, olacha chopon, ko'k sallali, jikkak jussa qariya yonida to'xtadi.

– Yo'l bo'lsin, otaxon? – deb so'radi old o'rindiqa o'tirgan, xumkalla, qosh-qabog'i soliq, qop-qora odam.

Qariya sersavlat ulovga hurkinqirib yaqinlashdi.

– Jalpoqtoshga.

– O'tiring, Chalpaktepagacha yetib olasiz.

– Ma'qul, ulim, baraka toping, – dedi qariya mashina orqa eshigiga qo'l cho'zarkan, – nariyog'i yaqin, bir amallarman.

– Tezroq qimirlang, buva, – deb qo'ydi haydovchi norizo ohangda.

Orqa o'rindiqqa yastanib olgan quyug sochlari orasta, silliq kishi ilkis surilib qariyaga joy bergan bo'ldi.

– Keling, otaginam.

Qariya joylasha-joylasha mashinadagi har uch kishi ham kulrang "komufiyajka" kiyimda ekanini payqadi.

"Askarlarmi deymen" – xayolidan o'tdi uning.

– Ota, tortinmang, – dedi orqa o'rindiqdagi hamroh uzun-qisqa salom-alkidan so'ng. – Chalpaktepagacha, e-he-e, yana qirq kilometr, yo'l nobop, qulay joylashib o'tiring.

– Rahmat, ulim, rahmat.

Tuman markazi, gavjum ko'chalar, serhasham uylar hash-pash deguncha ortda qoldi. "Lasetti" dala-dasht yo'lga chiqib oldi. O'ngu so'lda ekin maydonlari, ariq-zovurlar, yak-kam-dukkam uylar ko'zga tashlanadi.

– Haligi yerda nima qilib turgandingiz, buva? – deb so'radi haydovchi peshoyndan qariyaga ko'z tashlab.

– Ulashningma, Jobirningma "Damas"i kep qolarmikan deb kutib turgandim. Shu ikkovi Jalpoqtoshdan qatnaydi-da.

– Markazga nega kelgandingiz? Bozorga tushdingizmi? – yana so'radi haydovchi.

– E-e, bozor qayoqda, bolam, – deb qariya siyrak soqolini o'ychan silab qo'ydi, – sa-al tashvish bilan hokimlikka kelgandim.

Uning yonidagi hamroh cholgajablanib ko'z tashladi.

– Hokimlikka deysizmi?

– Ha, hokim qabuliga kelgandim.

Bizning Jalpoqtosh tap-taqir dasht. Ovulimizga, hechqursa, bitta quduq kerak. Qo'ni-qo'shni meni iltimos bilan jo'natishdi. Hokimga uchrashib, arzimizni yetkazing, deyishdi. Shuytib markazga kelib edim.

– Hokimga uchrashdingizmi? – yana so'radi yon hamroh.


– Ha, o'ychan bosh irg'adi qariya, – kirdim, ko'rdim.

– Qanday odam ekan hokim?

– Oppoq, kelishgan, bo'yinbog'li odam ekan.

Yon hamroh piqillab kulib yubordi. Haydovchi ham iljaygan ko'yi peshoyndan qarab qo'ydi.

– Ey, – deb po'ng'illadi xumkalla, – g'iybat qiliishga hokimdan boshqa



Luqmon BO'RIXON

# O'TIRIK

(Hikoya)

odam qurib qolganmi sanlarga.

Qariya, bular so'zlarimga ishonmadi, degan xayolda shosha-pisha aytganlarini isbotlashga kirishdi.

– Chin, yaxshi odam ekan. Meni kulib kutib oldi, choy quyib berdi.

– Hatto, choy ham quyib berdimi, – yon hamroh qariyaga xuddi hayratlangandek tikildi.

– Ha. Eshikkacha kuzatib ham qo'ydi.

– Arzingizni tingladimi?

– Ha, hal qilib beramiz deb aytdi.

– Sizni aldab-suldeb chiqarib yuborgan, – dedi yon hamroh bosh chayqab, – U iltimosingizni bajar-maydi.

– Nega bajarmaydi? – ajablanib unga tikildi qariya, – ana, Prezidentimiz xalqqa qayish, yordam ber deb har kuni aytib turibdi-ku. Yurt-boshimizning ishongan vakili bo'lgandan keyin bajaradi-da.

– Siz hokim Prezidentning ishongan vakili deb o'ylaysizmi?

– Ha-da, ishonganidan unga amal bergan-da. Birov bir nimani ishonib topshirgandan keyin bajarish kerak, esam, lafzizlik bo'ladi, ulim. Bu katta gunoh.

– Demak, – yana zavq bilan kuldi yon hamroh, – siz ham hamqishloqlarning ishonchini qozonib, ishni do'ndirib qaytayapsiz-da.

Qariya kaftlari bilan yuzini silagan bo'lib ko'zini yashirdi.

– Ha, endi... qo'ldan kelganicha...

Mashina sap-sariq, tap-taqir dasht qo'ynida uzalib ketgan, egri-bugri, past-baland yo'l bo'ylab ohista yelib borardi. Ur-kaltakdan shishib ketgan badanday qir-tepaliklar birin-ketin ortda qola boshladi.

– Uzr, ulim, – dedi yon hamrohiga yuzlanib qariya, – sizlarga yo'l bo'lsin? Cho'ponlarning otariga borasizlarmu?

Yon hamroh uzun bir homuza tortib

olgach:

– Sho'rsolda ishlayotgan geologlarni ko'rganmisiz, – dedi.

– Anovi burovoychilarni aytayapsizmi? Yer kovlagichlarni? Ha, ko'rganman.

– Men o'shalarining boshlig'i bo'ldaman. Ishga ketyapman.

Qariya beixtiyor uning qo'lidan ushladi.

– Sizni menga Xudo yetkazdi, ulim. Xuddi siz kerak edingiz menga?

– Iya, nega?! Tinchlikmi? – dedi yon hamroh chinakamiga ajablanib.

Haydovchi ham peshoyndan qiziqsinib qarab qo'ydi.

– Ha, siz kerak edingiz, – dedi qariya quvonchdan ko'zlari porlab.

– Xizmat bormi?

– Ha. Bizning qishloqqa quduq kovlatib bering, iltimos.

– Iya, gapingiz qiziq bo'ldi-yu, hozirgina idoraga kirib chiqdim, hokim muammoni hal qilib beradi, deb aytdingiz-ku?!

Qariya xuddi ichi og'riyotganday yuzlarini burishtirdi.

– Tuvrasini aytaymi sizga?

– Tuvrasini ayting.

– Boya, – dedi qariya ming bir xijolat ichida, – sal-pal o'tirik surgandim.

– O'tirik?! O'tirik surgandim?! Nima deganingiz bu?

– Yolg'on gapirgandim demoqchilar, – izoh bergan bo'ldi haydovchi.

Yon hamroh iljaydi.

– Ha-a, shunaqami hali... ja-a...quv ko'rinasiz-a, otaxon.

– Shunday bo'p qoldi-da, ulim.

Gapning tuvrasi, hokimlikning imoratini ko'rgan paytim tizzam qaltirab ketdi. Axir bu yerda chakana odamlar o'tirmaydi-da, tuvrama?

– Tuvra.

– Shuytib, ana keyin...o'yladim, hokim davlatning odami, zaril-zaril ishlari ko'p, bizdaychakinlar bilan

shug'ullanishga vaqtiyam, hafsalasi ham yo'q, mayda-chuyda iltimos bilan u kishining boshini qotirmaylik deb...ana keyin...eshikning oldida turib-turib izimga qaytdim.

– Iya, g'alati-yu, otaxon, hamqishloqlarning iltimosi nima bo'ldi, hali o'zingiz aytganday, ishonch masalasi nima bo'ldi?

– Gapni oxirigacha eshiting, ulim... ana keyin... qishloqqa borib, hokimga uchrashdim, shanba kuni kel, mablag' beraman, shu pulga quduq qazdirib olasizlar, deb aytdi deymen.

– Nega aynan shanba kuni? – so'radi yon hamroh tobora qiziqishi ortib.

– Ana keyin... shanba kuni besholti-qo'y haydab bozorga tushaman, sotaman, pulini ovulga olib boraman, mana, hokim so'zida turdi, mablag' berib yubordi, deymen, burovoychilar bilan gaplashib, shu pulga quduq kovlatamiz, deb maslahat solaman.

– Peshoyndan qarab-qarab qo'yayotgan haydovchi taajjulanib so'radi:

– O'zingizning hisobingizdan quduq kovlatmoqchimisiz?

– Ha, endi-i, ulim, mol ketsa, ketar, lekin odamlarning ishonchi o'lmasin, uydan shu ishni bo'yinga olib chiqqanman, o'rtada lafz bor, xarajat qilaman-da. Boshlanishiga shu pul yetar, qolganiga ham Xudo poshsho.

– Xarajatni siz qilasisiz, yugur-yugur ham sizning bo'yingizda, izzat-obro' hokimga ekan-da, – dedi yon hamroh qariyaga sinovchan ko'z tashlab.

– Ha, endi-i, – deb jilmaydi qariya, – u kishi ham shu el uchun kuyib-pishib yuribdi, qayishganimiz ma'qul-da.

– Siz ja-a g'alati fikrlar ekansiz, otaxon.

– Ulim, – qariya yana yon hamrohning qo'lini kaftiga oldi, – iltimos, yordam bering, xarajatga tayyorman, aytganingizni beraman, yuzimni yorug' qiling.

Yon hamroh yayrab kuldi.

– Otaxon, sizning yuzingiz hamisha yorug'. Siz o'tirik surganingiz yo'q. Siz chindan ham hokimga uchrashdingiz, iltimosni yetkazdingiz.

– Yo'g'-a, qaytib?

– Ana, – yon hamroh old o'rindiqa o'tirib, go'yo dala-dashtni kuzatib ketayotgan xumkalla, qop-qora kishiga ishora qildi, – siz aytgan oppoq, kelishgan hokim shu yerda...

Haydovchi baralla kulib yubordi.

Hokim ham miyig'ida iljayib ortga o'girildi.

– Nega kulasanlar? Otaxon o'tirik surmaydi, ko'ngli oppoq, niyati toza odamlar bular, shuning uchun ko'zlariga hamma oppoq, kelishgan ko'rinadi.

Mashina saloni yana qah-qahalar-dan larzaga keldi.

Ey, sen, maynavoz, – dedi hokim haydovchiga yuzlanib, – tuvra Jalpoqtoshga hayda. Otaxon hokimni ham, quduq kavllovchini ham oldiga solib kelganini hamma ko'rib qo'ysin.

## 6 JARAYON

2018-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga asosan respublikamizning 14 ta hududida yuridik texnikumlar tashkil etilgan. Shundan buyon har yili yangi o'quv yilida yuridik texnikumlarga qabul jarayonlari amalga oshirilib kelinmoqda.



## Yuridik texnikumlarda qabul boshlandi

### QABUL TARTIBI QANDAY?

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktabrdagi qarori bilan Adliya vazirligining yuridik texnikumlariga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlangan. Mazkur nizomda Adliya vazirligining yuridik texnikumlariga kunduzgi, sirtqi, masofaviy va kechki ta'lim shakllari bo'yicha o'qishga qabul qilish tartibi belgilangan. Yuridik texnikumlarda davlat huquqiy faoliyat yuridik xizmat, sud-huquqiy faoliyat mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlanadi.

Yuridik texnikumlarga umumiy o'rta ta'lim (II-sinfni) yoki o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi bitiruvchilari o'qishga kirish uchun hujjatlarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) yoki Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-sayti

(<https://uzbmb.uz/>) orqali onlayn topshirishlari mumkin.

### Hujjatlarni qabul qilish joriy yilning 1-avgustidan 20-avgustigacha (shu kuni ham) amalga oshiriladi.

Yuridik texnikumlarga O'zbekiston fuqarolarini qabul qilish Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlari orqali amalga oshiriladi.

Test sinovlari test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, baholash mezonlari, test topshiriqlari soni TDYu bakalavriyatiga kirish uchun belgilangan talablarga muvofiq bo'lib o'tadi.

Chet el fuqarolari yuridik texnikumlar tomonidan tashkil etiladigan suhbat natijasida qabul qilinadi.

Abituriyentlar o'qishga davlat buyurtmasi, to'lov-kontrakt, shu jumladan, tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida qabul qilinadi.

O'qish muddati 2 yilni tashkil etadi.

### OLIY O'QUV YURTIGA YO'LLANMA

Yuridik texnikum bitiruvchilariga imtiyoz jihatidan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Adliya vazirligining yuridik texnikumlari bitiruvchilariga "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi davlat oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriyatiga o'qishga kirish uchun yo'llanmalar berish yuzasidan tanlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 3370, 2022-yil 3-iyun) qabul qilingan.

Mazkur nizom bilan bitiruvchilarga yo'llanma berish bo'yicha tanlovni tashkil etish va o'tkazish, bitiruvchilar maxsus komissiyaga yo'llanma berishni so'rab onlayn platforma orqali murojaat qilish, tanlov natijalari bo'yicha berilgan apellyatsiya va uni ko'rib chiqish, bitiruvchilarning yo'llanma olish uchun minimal talablarni tasdiqlovchi hujjatlarini 100 ballik tizimda baholash mezonlari belgilandi. Shuningdek, nizomga ko'ra, tanlovda talabgorning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini, shuningdek, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini aniqlashga qaratilgan savollarga bergan javoblarini 50 ballgacha baholash, avtomatik ravishda onlayn platforma orqali oliy ta'lim tashkilotlari kesimida taqsimlash kabi bir qator tartiblar ham belgilangan.

### Yo'llanmalar quyidagi minimal talablarni bajargan bitiruvchilarga beriladi.

#### Kunduzgi ta'lim shaklida o'qigan bitiruvchilar:

- har bir fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi reyting natijalari bo'yicha 71 va undan ortiq foizni

tashkil qilishi;

- chet tilini B2 va undan yuqori darajada bilishini tasdiqlovchi amaldagi davlat malaka sertifikatiga yoki xalqaro sertifikatga ega ekanligi;
- ma'naviy-ma'rifiy va jamoat ishlari, loyihalar va tanlovlarda faol ishtirok etishi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi;
- ichki tartib-qoidalarga, odob-axloq qoidalariga rioya etishi va namunali xulq-atvoriga egaligi ham inobatga olinadi.

#### Sirtqi yoki masofaviy ta'lim shakllarida o'qigan bitiruvchilar:

- umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi reyting natijalari bo'yicha 85 va undan ortiq foizni tashkil qilish kerak;
- chet tilini B2 va undan yuqori darajada bilishini tasdiqlovchi amaldagi davlat malaka sertifikatiga yoki xalqaro sertifikatga ega ekanligi;
- ichki tartib-qoidalarga, odob-axloq qoidalariga rioya etishi va namunali xulq-atvoriga egaligi ham muhim mezonlar hisoblanadi.

Yuridik texnikumlar bitiruvchilarining oliy ta'lim muassasalariga kirish qamrovini kengaytirish hamda ularga teng imkoniyat va shart-sharoit yaratish maqsadida nafaqat TDYu-ga, shuningdek respublikada "yurisprudensiya" mutaxassisligi bo'yicha yuridik kadrlarni tayyorlashni amalga oshiruvchi boshqa oliy ta'lim tashkilotlariga suhbatda ishtirok etish uchun tegishli yo'llanmani olish tartibi belgilandi.

#### Xadicha SAYDULLAYEVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Uzluksiz ta'lim boshqarmasi xodimi

## NOQONUNIY BUYRUQ QABUL QILINISHINING OLDI OLINDI

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonuniyligni mustahkamlash, demokratik va huquqiy islohotlarni amalga oshirishda yuridik xizmatlarning roli va javobgarligini izchillik bilan kuchaytirish maqsadida 2021-yil 29-iyunda "Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilingan.

Yuridik xizmat ko'rsatiladigan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash, davlat tashkilotlariga sifatli va malakali yuridik yordam ko'rsatish, davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish markazlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi. Shuningdek, ushbu markazlar yuqoridagi qarorga muvofiq, davlat tashkilotlarining mulkiy hamda boshqa huquqlari va qonuniy manfaatlari o'z vaqtida, har tomonlama va samarali himoya qilinishini ta'minlash, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarining loyihalaridagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga ko'maklashish bilan ham shug'ullanib kelmoqda.

Hozirgi kunda Sariosiyo tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazi tomonidan jami 145 ta tashkilotga xizmat ko'rsatib kelinmoqda. Markaz xodimlari tomonidan tashkilotlar yuborayotgan hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, tashkilotlarda huquqiy monitoring olib borilib, huquqiy tushuntirishlar berib kelinmoqda.

Markaz faoliyatida bir qator sohaviy kamchiliklar ham ko'zga tashlanmoqda. Mas'ul xodimlar ijro intizomiga amal qilmasligi oqibatida tashkilotlar tomonidan hujjatlarining o'z vaqtida yuborilmasligi holatlari kuzatilmoqda, bu esa markaz xodimlarini chalg'itishga olib kelmoqda. Buni yaqinda uchragan bir holat misolida ham ko'rish mumkin. Joriy yilda markazga yuborilgan bir ma'lumotda tuman maktablaridan birida asli tarix fani o'qituvchisi bo'lib ishlaydigan xodimni texnologiya fani o'qituvchisi sifatida E-huquqshunos elektron tizimiga yuborish holati kuzatildi. Markaz xodimlarini shubhalantirgan narsa - ilovada keltirilgan arizadagi yozuv yana bir markaz xodimiga yuborilgan ariza bilan husnixat jihatidan bir xil ekan bo'ldi. Unda xodimning tarix fani o'qituvchisi ekan oshkor bo'lib qoldi. Markaz xodimlarining xushyorligi bilan buyruq noqonuniy qabul qilinishining oldi olindi. Agar-da yuqoridagi xatti-harakatlar natijasida markaz xodimlari tomonidan ushbu holatning oldi olinmaganida, bir qator tushunmovchiliklar va qonunbuzilish holatlari yuzaga kelar edi. Natijada tegishli idora tomonidan markaz tomonidan berilgan xulosa xato berilgani yuzasidan ushbu buyruqni bekor qilishga to'g'ri kelar edi.

Shu bilan birga, sohaga tajribali kadrlarning jalb

qilinishidagi kamchiliklar hujjatlar loyihalarining iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizadan o'tkazilishi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada qabul qilinayotgan qarorlar va boshqa hujjatlar ko'p hollarda joylarda jismoniy va yuridik shaxslarning e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, markazlar faoliyati KPI tizimi orqali baholanadi. KPI - "Key Performance Indicator", ya'ni "Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari" bo'lib, qo'yilgan maqsadga belgilangan vaqt ichida qanday darajada erishganlikni ko'rsatib beruvchi tizim hisoblanadi. Ushbu baholash tizimi orqali markazlar faoliyati reytingi yuritib kelinadi. Yuqoridagi kabi holatlar natijasida markaz tomonidan berilgan xulosa bekor qilinadi. Natijada esa, markazning ushbu baholash tizimidagi ko'rsatkich darajasi pasayishi mumkin. Adliya vazirligi tomonidan byurokratiya va ortiqcha hujjatbozlikni kamaytirish yuzasidan islohotlar olib borilishiga qaramasdan, yuqoridagi kabi holatlar uchrab turibdi. Bu esa ba'zan taqdim etiladigan hujjatlar soni oshishiga olib kelmoqda. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanmas ekan, amalga oshirilayotgan islohotlar o'z samarasini berishida tushunmovchiliklar yuzaga chiqaveradi.

#### Mirkarim OMONOV,

Sariosiyo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniyligni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Chunki qonunlar mavjud bo'lsa-yu, hech kim bu qonunlarga itoatkor bo'lmasa, bu jamiyat tubanlik botqog'iga botadi.

## HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH — DAVR TALABI



So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga

to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar ham uchramoqda.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun, eng avvalo, huquqiy axborotni ishonchli, tezkor tarzda jamoatchilikka yetkazish zarur, albatta. Biroq jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida olib borilayotgan islohotlarga qansabdordlar tomonidan e'tiborsizlik qilinishi holatlari ham uchrab turibdi.

Xali ham aholining huquqiy bilim-

lari yetarli emas. Davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli ko'pchilik foydalanmaydi. Bu esa mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishi holatlari vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan foydalanish davr talabi bo'lib qolmoqda. Yuqoridagi kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun biz — huquqshunolar targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan foydalanishimiz zarur, deb o'ylayman.

Eng muhimi, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shgan davlat organlari va tashkilotlari xodimlarini qo'llab-quvvatlash zarur. O'z o'rnida yolg'on axborot tarqatganlik uchun javobgarlikni va ushbu holat aniqlanganda zudlik bilan munosabat bildirishni kuchaytirish zarur.

**Najmiddin ESHMIRZAYEV,**  
Sariosiyo tuman adliya bo'limi  
Yuridik xizmat ko'rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti



## Ayrim qarorlar darhol ijro etiladi

Mehnat nizolarini ko'rib chiquvchi organning xodimga ish haqini to'lash, lekin uch oydan ko'p bo'lmagan muddat uchun to'lash to'g'risidagi qarori darhol ijro etilishi lozim.

Sud hujjatlari yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlardan kelib chiquvchi talablarga ko'ra bekor qilingan taqdirda, agar bekor qilingan sud hujjati da'vogar xabar qilgan yolg'on ma'lumotlarga yoki u tomonidan taqdim etilgan qalbaki hujjatlarga asoslangan bo'lsa, sud hujjatining qaytarma ijro etilishiga yo'l qo'yiladi.

O'zi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni ishga tiklash, shuningdek mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarining ta'rifini o'zgartirish to'g'risidagi sud qarori darhol ijro etiladi. Shuningdek, g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimni avvalgi ishga tiklash haqidagi yoxud g'ayriqonuniy ravishda ishdan chetlashtirilgan xodimga avvalgi ishini berish to'g'risidagi yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiquvchi organning qarori ham darhol ijro etilishi zarur.

Ish beruvchi tomonidan bun-

day qarorning ijrosi kechiktirilgan taqdirda, qarorni qabul qilgan mehnat nizosini ko'rib chiquvchi organ, xodimning murojaatiga ko'ra, ajrimning yoki qarorning ijrosi kechiktirilgan butun vaqt uchun xodimga o'rtacha ish haqini yoki ish haqidagi farqni to'liq miqdorda to'lash to'g'risida tegishincha ajrim yoki qaror chiqaradi.

Ish beruvchi mehnat nizolari bo'yicha komissiyaning qarorini o'z vaqtida ijro etmagan taqdirda, g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan yoki g'ayriqonuniy ravishda ishdan chetlashtirilgan xodim o'ziga ish beruvchi tomonidan komissiya qarorining ijrosi kechiktirilishi sabab bo'lgan majburiy progulning butun vaqti uchun o'rtacha ish haqi yoki ish haqidagi farq to'lanishini talab qilib, sudga murojaat etishga haqli.

**Bahodir XUDOYBERDIYEV,**  
Termiz tuman adliya bo'limi DXM  
boshlig'i

## E'LONLAR

"Notarius to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 152-moddasi va Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 20-iyuldagi 7-son yig'ilish qaroriga asosan Kitob tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ishmuratova Gulsara Astanovna (litsenziya KS 0019, 2020-yil 24-aprel), Kitob tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Axmatov Ravshan Rustamovichga (litsenziya KS 0052, 2021-yil 11-noyabr), Qarshi shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Boynazarova Dilafuz Asadovna (litsenziya KS 0055, 2022-yil 4-iyul), Qarshi shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Kenjayeva Matluba Nurmaxmatovna (litsenziya KS 0028,

2020-yil 27-aprel), Shahrisabz tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Pattayeva Muhlisa Irgashevna (litsenziya KS 0022, 2020-yil 24-aprel), Qarshi shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shodiyev Humoyun Sherqul o'g'liga (litsenziya KS 0049, 2020-yil 9-noyabr), Chiroqchi tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sitdiqov Ikrom O'ktamjonovichga (litsenziya KS 0054, 2022-yil 4-iyul), Qarshi shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Turdiyev Ulug'bek Uktamovichga (litsenziya KS 0003, 2020-yil 22-aprel) va Qarshi shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yakubov In'omjon Mustafqulovichga (litsenziya KS 0040, 2020-yil 27-aprel) viloyat adliya boshqarmasi tomoni-

dan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 1 oy muddatga, ya'ni 2023-yilning 4-avgust kundan 2023-yilning 4-sentabr kungacha qadar to'xtatildi.

Toshkent viloyati adliya boshqarmasining 2023-yil 18-iyuldagi 217-um-son buyrug'i hamda "Notariat to'g'risida"gi qonunning 2 va 153-moddasiga muvofiq Zangiota tumanida xususiy notarial amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tashtanova Qurri Xakimovna 2023-yil 20-iyul kuni 65 yoshga (oltin besh) to'lgani munosabati bilan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi TS 0043-sonli litsenziyaning amal qilishi va notarius maqomi 2023-yil 20-iyuldan tugatildi.

## SO'RAGAN EDINGIZ



— Agar talaba shartnoma pulini to'lashga qiynalsa, oliy ta'lim muassasasi tomonidan unga imtiyoz beriladimi?

**Malika UMAROVA,**  
talaba



## IMTIYOZ BERILADIMI?

— To'lov-kontrakt asosida o'qish ixtiyoriy bo'lib, tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda mazkur toifadagi talabalar uchun oliy ta'lim muassasasi tomonidan to'lov shartlarini yengillashtirish bo'yicha imtiyozlar berish ko'zda tutilmagan.

2022-yil 18-iyuldagi "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga ko'ra, to'lov-kontraktida o'qiyotgan xotin-qizlarga imtiyozli foizsiz ta'lim krediti beriladi. Siz ushbu imtiyozdan foydalanishningiz mumkin. Ushbu ta'lim krediti O'zbekistondagi barcha oliy ta'lim muassasalari talabalariga, jumladan, davlat, xususiy va xorijiy OTMLar filiallari talabalariga ham daxldir. Ushbu qaror o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'quvchilariga (texnikum, kasb-hunar kolleji va h.k.) ham tegishli.

Ta'lim krediti ta'limning kunduzgi, sirtqi, kechki ta'lim shakllariga beriladi. Lekin super-kontrakt, qo'shma ta'lim, masofaviy ta'lim, ikkinchi mutaxassislik uchun berilmaydi.

Ta'lim krediti aslida 14 foizlik stavkada beriladi. Lekin 14 foizlik qismini xotin-qizlar to'lamaydi, Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi tomonidan qoplanadi. Xotin-qizlar faqat ta'lim kreditining asosiy qismini to'laydi, xolos.

Ta'lim kreditining asosiy qismi talabaning rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab, ya'ni o'qishni tugatgach, olti oy o'tib, 7 yil davomida qaytariladi.

Ta'lim krediti olish uchun talaba bankka ariza, shaxsini tasdiqlovchi hujjat, ta'lim muassasasi bilan to'lov-kontrakt shartnomasi, talabaning doimiy daromad manbaiga ega bo'lgan oila a'zolari va boshqa uchinchi shaxs birgalikda qarz oluvchi sifatida ta'lim krediti qaytarilishining ta'minoti bo'yicha hujjatlarni taqdim etishi kerak.

"Ijtimoiy himoya yagona yestri"ga kirgan oilalarning xotin-qizlariga ajratiladigan ta'lim kreditlari uchun garov va kafillik talab etilmaydi.

**Savolga Sho'rchi tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Temurmalik AKIBOV javob berdi**

**8 ADLIYA FAXRIYSI**

**Inson aqlini taniganidan boshlab hayotda o'z o'rnini topishga, o'zidan yaxshi nom, yaxshi iz qoldirishga harakat qiladi. O'qiydi, izlanadi, toblanadi. Hayotning o'ngir-cho'ngir yo'llari, sirli-sinovli dovonlaridan o'tishga va mashaqqatlarni yengishga kuch topadi.**



Jonkuyar FHDY bo'limi mudirasi zamon-doshlarining quvunch va tashvishlariga sherik bo'lishni, ularning huquqiy bilim va madaniyatini oshirish yo'lida halol xizmat qilishni o'zining muqaddas burchi deb bildi. Shuningdek, bu vazifalar bilan bir qatorda zimmasidagi oila va ro'zg'or tashvishlari, farzandlar tarbiyasi, ularning orzu-havaslari ro'yobga chiqarish ham

Durxonum ayaning hayotidagi eng nurlı sahifalarga aylan-di. U davlat ishlari bilan birga jamoat ishlarida ham faollik ko'rsatdi. 1975-2005-yillarda jamoatchilik aso-sida "Markazobod" mahalla fuqarolar yig'inida xotin-qizlar kengashi

raisi vazifasida faoliyat yuritdi. Oilalar mustahkamligini ta'minlash, mahallada sog'lom ma'naviy muhitning barqarorligini saqlashga o'z hissasini qo'shdi. To'rt marta xalq deputatlari To'rtko'l tuman Kengashi deputatligiga saylandi, qonunlar mohiyatini tushuntirishga harakat qildi, xalqning xizmatida bo'ldi. O'z ishiga sadoqatli, yurtga fidoiy shogirdlarni tarbiyaladi.

To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskon-sulti Nasiba Abdurahmonovaning Durxonum aya haqidagi minnatdor dil izhorlari ustozning xizmatiga berilgan samimiy baho: - "Men shu insonning shogirdi bo'lganimdan cheksiz faxrlanam. U kishining hayot yo'lida bosib o'tayotgan har bir qadami, boy tajribasi, she'riyat olamidagi dilbar suhbatlari biz uchun katta ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi. O'ndan ortiq nevara va chevaralarga sevimli va mehribon, shogirdlarga hamisha qadrli va aziz bo'lgan Durxonum ayaga uzoq umr, sog'lik, salomatlik tilayman. Baxtimizga hamisha omon bo'lsin, uzoq yillar bizga bosh bo'lib yursin!


Mehnat qilgan elda aziz, deydilar. Darhaqiqat, Durxonum aya ham nafaqat oila davrasida sevimli, hamkasblaru shogirdlar, mahalladoshlar e'zosi bilan birga Adliya vazirligi hurmati, e'tirofiga sazovor bo'lgan faxriylardan. U ko'p yillik halol mehnatlari uchun qator ko'krak nishonlari va O'zbekiston hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirliklarining Faxriy yoriqlari bilan taqdirlangan.

Yuzlaridan nur, ko'zlaridan mehr yog'ilib turgan munis va mo'tabar ayolni qutlug' 85 yoshi bilan muborakbod etamiz! Um-ringiz bundan ham ziyoda bo'lsin, onaxon!

**Marusa HOSILOVA,**  
"Inson va qonun" muxbiri



**Ayol eri tuhmat bilan qamalgan kunining ertasiga bozorga bordi. Maqsad: tishining kovagida turgan yuz dollarni maydalash va ro'zg'orning kamini shu pulga to'ldirish edi. Yana eriga ham odamini topib, ichkariga junpaypoq kirgazmoqchi! Chunki biladi, farzandlarining otasida bod kasali bor...**



Uch-to'rt sarrof (dollarufush)-ni oralay erining do'sti bo'lgan bir odamning oldiga bordi:

- Falonchi aka, yaxshimisiz? Erim sizga uchrashimni aytdilar. Shu yuz dollarni maydalab bering...

Sarraf darrov eshitgan xabarini aytdi. "Yomon gap tez tarqaladi" deganlari balki shudir...

- O'rtog'im yaxshi bola edi, nima bo'ldi o'zi? Eshitib hayron qoldik. Siqilmang, tez orada chiqib ketadi, u unaqa bola emas...

Ayol ajablanganidan savol berdi:

- Siz qachon eshitdingiz?  
- Kecha...

Sarraf pul berdi, ayol unga ishongani uchun pulni oldi. Sal yurib, pana joyga o'tib, sanab ko'rdi. Keyin eriga atab junpaypog'u issiq kiyim-kechak qildi. Qayog'danam ro'parasidan "dollar, rossiyaskiy olamiz!" degan bittasi chiqa qoldi... Biri aytgan pulning qiyosini eshitib, ishonmadi! Yana boshqasidan so'radi... Boyagi holatini bilib, taskin bergan sarraf uni naq o'ttiz ming so'mga aldagandi...

O'ttiz ming... U hech narsa emas aslida, ammo... Bilib turib ko'z o'yish deb atalardi bu voqea! Uyga kelguncha tayoqdek qotib keldi. Qo'lidagi junpaypoqqa ko'z yoshi tomib-to'mib yig'ildi! O'ttiz ming uchun emas... Yiqilganning ustiga chiqib, bo'yini baland ko'rsatadigan ana shunaqa odamlar borligi uchun!

Uyining yonida bir magazin bor. Sotuvchisi ilmli yigit! Oxirgi paytlar sezib qoldi: o'sha yigit nuqul xarajatlarni noto'g'ri hisoblayapti...

- Shakar necha pul?  
- Besh ming, kelinoy!  
- Ikki kilo bering!  
- Xo'p, yana nima?  
- Bodring ikki kilo.  
- Nega sizlarda arzon?  
- So'lib qolyapti-da issiqda...  
- Qatitiq?  
- Bir litrligi besh ming.  
- Jami?  
- O'n olti ming...  
- Akamga salom aytib qo'ying.

Yo'lda kelguncha o'ylanib keldi. Yo'lining u yog'ida boshqa magazin bor. Erinmasdan kirdi. Shakar u yerda to'qqiz ming ekan. Ayol bu safar ham yig'ildi. Ko'cha qorong'u, yig'laganini birov bilmaydi, ko'rmaydi... Ertasi kuni kecha o'n olti ming savdo qilgan do'koniga bordi.

- Kecha adashib kam hisoblabdim, men uyda o'tirib hisobladim, to'lashga pulim yetarli. Iltimos, kechagi narsalarni boshqatdan hisoblab bering!

- Kelinoyi, hammasi yaxshi. Akamni so'rab qo'ying! Nima kerak bo'lsa, chiqavering.

Ayol tushundi. Dardini ayt-masa ham biladigan odamlar bor ekan. Taskin bermasa ham qo'llaydiganlar bor. Mana, nima uchun dunyoni yaxshilar obod qiladi deymiz!

**Shohida NISHONOVA**

**Durxonum ayaning****HAYOT YO'LI****SHOGIRDLARIGA IBRAT BO'LMOQDA**

**Z**ero, butun umr odamlar xizmatida bo'lishning cheksiz sharafi va katta mas'uliyati bor. Qahramonimiz Durxonum Seytniyazova ham ana shunday mashaqqatli va faxrli hayot yo'lini bosib o'tayotgan adliya faxriysi.

1938-yilning 2-avgustida tavallud topgan D. Seytniyazova o'z mehnat faoliyatini 1961-yilda To'rtko'l tumanidagi Lermontov nomli o'rta ta'lim maktabida oddiy o'qituvchilikdan boshlagan. Keyinchalik bir muddat tumandagi Titov nomli o'rta ta'lim maktabida o'qituvchilik qildi. 1964-yildan boshlab o'n besh yil mobaynida maktabgacha ta'lim muassasasining direktori vazifasida ishladi. 1979-yildan 1996-yilga qadar tuman fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi mudirasi lavozimida faoliyat yuritgan D. Seytniyazova umrining 35 yilini yoshlar tarbiyasi va fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilishdek mas'uliyatli ishga sarfladi.

**TAHRIR HAY'ATI**

**Alisher Karimov**  
**Furqat Tojiyev**  
**Xayotjon Klichev**  
**Sevara O'rinbojeva**  
**Yorbeq Iskandarov**  
**Diifuza Ergasheva**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

**Navbatchi**  
Gulbahor Ortiqxo'jayeva  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Jasur Tojiyboev

**Nashr indeksi: 137**

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj - 3500  
Buyurtma - 2216

Topshirish vaqti - 19:00  
Topshirildi - 20:00

**MANZILIMIZ:**

100115, Toshkent sh. Amir Temur shohko'chasi 19-uy.

Faks: (71) 233-28-18  
Obuna bo'limi: (71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5

**INSON**  
va qonun

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0081-raqam bilan ro'yxatga olingan

ISSN 2038-7897



**Bosh muharrir**  
Asliddin ALIMARDON